

**XALQ DEPUTATLARI
BERUNIY TUMAN
KENGASHINING
QARORI**



**XALÍQ DEPUTATLARÍ
BERUNIY RAYONLÍQ
KEÑESINIŇ
QARARÍ**

2023 - yil 17 - yanvar

VI-60-2-13-182-K/23

Beruniy tuman hokimligi

Beruniy tumanida 2023 yilda bazaviy soliq stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo'llash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429,437-moddalariga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Prezidiumining 2023-yil 9-yanvar kungi 1062-sonli "Qoraqalpog'iston Respublikasida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlariga 2023-yil uchun yer solig'i stavkalarini belgilash haqida"gi qaroriga muvofiq, soliq stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo'llagan holda yer solig'i stavkalarini belgilash maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6,24-moddalariga asoslanib Xalq deputatlari Beruniy tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Prezidiumining 2023-yil 9-yanvar kungi 1062-sonli "Qoraqalpog'iston Respublikasida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlariga 2023-yil uchun yer solig'i stavkalarini belgilash haqida"gi qarori rahbarlikka olinsin.

2. Xalq deputatlari Beruniy tuman Kengashi belgilangan yer solig'i stavkalariga, tuman hududida joylashgan ovul va mahallalar kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni kiritish huquqiga ega ekanligi;

Bunda, belgilangan yer solig'i stavkasiga soliq yukini keskin oshirishning oldini olish maqsadida jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'iga belgilangan (yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari) stavkasiga 2023-yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 hissasidan oshmagan holda koeffitsientlarni qo'llash, shuningdek, jismoniy shaxslar egalik qilayotgan bir gektardan ortiq yer uchastkalariga 3,0 ga qadar oshiruvchi koeffitsientlarni qo'llash mumkin ekanligi belgilansin.

3. Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar

bo'yicha mutlaq miqdorda 1 gektar uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 1-ilovaga muvofiq, jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 kv. metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Beruniy tuman hokimining birinchi o'rinbosari (U.Matirzayev), Davlat soliq inspeksiyasi (K.Atadjanov) bilan birgalikda tumandagi yuridik va jismoniy shaxslarning egallagan yer maydonlariga soliq stavkalarini to'g'ri qo'llanilishi bo'yicha doimiy nazorat o'rnatilsin.

Beruniy tumani davlat soliq inspeksiyasi (K.Atadjanov)ga Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan belgilangan soliq stavkalari bo'yicha yer solig'i to'lovchilarni o'z vaqtida xabardor qilish va undirilishini ta'minlash topshirilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining "Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha" doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

6. Xalq deputatlari Beruniy tuman Kengashining 2021-yil 30-dekabr kungi VI-40-66-13-182-K/21-sonli sessiya qarori (Xalq Minbari gazetasining 2022-yil 15-yanvardagi №1 (6416)- son) o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



A.Saparbayev

Xalq deputatlari Beruniy tuman
Kengashining
2023 yil 17 yanvardagi
VI-60-2-13-182-K/23-son
qaroriga
1-ilova

Beruniy tumanida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha eng kam miqdori 1 gektar uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi kiritilishi to'g'risidagi kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari

T/r	OFY, MFYlar nomi	Koeffitsent (0,7 dan 3,0 gacha)	2023-yil uchun yer solig'i stavkasi (ming.so'mda)
1	A.Temur MFY	0,95	23 854,5
2	Abay OFY	0,7	17 577,0
3	Beruniy OFY	0,7	17 577,0
4	Biybazar OFY	0,7	17 577,0
5	Birlik MFY	0,95	23 854,5
6	Bunyodkor MFY	0,95	23 854,5
7	Bo'ston MFY	0,95	23 854,5
8	Guliston MFY	0,95	23 854,5
9	Do'stlik MFY	0,95	23 854,5
10	Do'stlik OFY	0,7	17 577,0
11	Jayxun MFY	0,95	23 854,5
12	Jumaniyazov MFY	0,95	23 854,5
13	Ibn-Sino MFY	0,95	23 854,5
14	Istiqlol MFY	0,95	23 854,5
15	Qangshartal MFY	0,7	17 577,0
16	Qizilqal'a OFY	0,7	17 577,0
17	Qiyot MFY	0,95	23 854,5
18	Lolazor MFY	0,95	23 854,5
19	Markaziy MFY	0,95	23 854,5
20	Maxtumquli OFY	0,7	17 577,0
21	Mustaqillik MFY	0,7	17 577,0
22	Navoiy MFY	0,95	23 854,5
23	Navoiy OFY	0,95	23 854,5

24	Navro'z MFY	0,95	23 854,5
25	Nayman MFY	0,7	17 577,0
26	Obi-xayot MFY	0,95	23 854,5
27	Ozod OFY	0,7	17 577,0
28	Oltinsoy OFY	0,7	17 577,0
29	Palvash MFY	0,7	17 577,0
30	Paxtakor MFY	0,95	23 854,5
31	Sarkop OFY	0,95	23 854,5
32	Saroyko'l MFY	0,95	23 854,5
33	Tinchlik OFY	0,95	23 854,5
34	To'qimachi MFY	0,95	23 854,5
35	Turon MFY	0,95	23 854,5
36	Xorazm MFY	0,95	23 854,5
37	Shabboz MFY	0,95	23 854,5
38	Shabboz OFY	0,95	23 854,5
39	Shimom OFY	0,95	23 854,5
40	Yangiobod MFY	0,95	23 854,5

Qo'shimcha: Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan yuridik shaxslar uchun yer soliqi stavkasining ovul va mahalla fuqarolar yig'inlari hamda ko'chalar kesiminda ularning iqtisodiy jihatidan rivojlanishiga qarab 0,7 dan 3,0 ga qadar kamaytiruvchi hamda oshiruvchi koeffitsentlarining belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Beruniy tuman
Kengashining
2023 yil 17 yanvardagi
VI-60-2-13-182-K/23-son
qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligi yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan tashqari) eng kam miqdori 1 kv. metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi kiritilishi to'g'risidagi kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari

T/r	OFY, MFYlar nomi	Koeffitsent (0,7 dan 3,0 gacha)	2023-yil uchun yer solig'i stavkasi (ming so'mda)
1	A.Temur MFY	0,9	187,90
2	Abay OFY	0,7	146,15
3	Beruniy OFY	0,7	146,15
4	Biybazar OFY	0,7	146,15
5	Birlik MFY	0,9	187,90
6	Bunyodkor MFY	0,9	187,90
7	Bo'ston MFY	0,9	187,90
8	Guliston MFY	0,9	187,90
9	Do'stlik MFY	0,9	187,90
10	Do'stlik OFY	0,7	146,15
11	Jayxun MFY	0,9	187,90
12	Jumaniyazov MFY	0,7	146,15
13	Ibn-Sino MFY	0,7	146,15
14	Istiqlol MFY	0,9	187,90
15	Qangshartal MFY	0,7	146,15
16	Qizilqal'a OFY	0,7	146,15
17	Qiyot MFY	0,9	187,90
18	Lolazor MFY	0,7	146,15
19	Markaziy MFY	0,9	187,90
20	Maxtumquli OFY	0,7	146,15
21	Mustaqillik MFY	0,7	146,15
22	Navoiy MFY	0,9	187,90
23	Navoiy OFY	0,7	146,15
24	Navro'z MFY	0,9	187,90

25	Nayman MFY	0,7	146,15
26	Obi-xayot MFY	0,7	146,15
27	Ozod OFY	0,7	146,15
28	Oltinsoy OFY	0,7	146,15
29	Palvash MFY	0,7	146,15
30	Paxtakor MFY	0,9	187,90
31	Sarkop OFY	0,7	146,15
32	Saroyko'l MFY	0,9	187,90
33	Tinchlik OFY	0,7	146,15
34	To'qimachi MFY	0,9	187,90
35	Turon MFY	0,7	146,15
36	Xorazm MFY	0,9	187,90
37	Shabboz MFY	0,9	187,90
38	Shabboz OFY	0,7	146,15
39	Shimom OFY	0,7	146,15
40	Yangiobod MFY	0,9	187,90

Qo'shimcha: Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer soliqi stavkasining ovul va mahalla fuqarolar yig'inlari hamda ko'chalar kesimida ularning iqtisodiy jihatidan rivojlanishiga qarab 0,7 dan 3,0 ga qadar kamaytiruvchi hamda oshiruvchi koeffitsentlarining belgilash huquqiga ega.